

## TALABALAR IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalar ijodiy faolligi motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillarning ilmiy psixologik, nazariy va metodologik asoslari, ularning shaxs rivojlanishiga aloqasi borasida mushohadalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Talaba, ijod, faollik, motivatsiya, yangilik hissi, kognitiv jarayonlar, tanqidiylik, o'z-o'zini baholash.

## ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА МОТИВАЦИЮ УЧАЩИХСЯ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В данной статье сделаны наблюдения о научных психологических, теоретических и методологических основах факторов, влияющих на мотивацию творческой деятельности студентов, их связи с развитием личности.

**Ключевые слова:** Студент, креативность, активность, мотивация, чувство новизны, познавательные процессы, критичность, самооценка.

## PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF FACTORS AFFECTING THE MOTIVATION OF STUDENTS CREATIVE ACTIVITY

**Annotation.** This article makes observations about scientific psychological, theoretical and methodological basic factors, motivational and creative thinking of students, ix connections with personality development.

**Keywords:** Student, creativity, activity, motivation, sense of novelty, cognitive processes, criticality, self-esteem.

**Kirish.** So'ngi yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonida talabalarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarni rivojlantirish muammosiga bo'lgan e'tibor o'sib bormoqda. Tadqiqotchilar tomonidan turli sohalaridagi oliygohlarning talabalarida ta'lim jarayonida ijodiy faollikni shakllantirishning yahlit tizimini amaliyotda moslashtirilgan va loyihalashtirilganiga qaramay, ilmiy loyihalashtirish sur'ati unga nisbatan bo'lgan talab ortidan ulgurayotgani yo'q.

Ushbu fenomenning tadqiq etish jadalligi bugungi kunda jamiyatning ta'lim tizimidagi ro'y berayotgan o'zgarishlar tufayli keskin ko'tarilgan. Ijodiy faol shaxsni tarbiyalash - jamiyatning o'zgargan ijtimoiy buyurtmasiga muvofiq ta'lim tizimining yo'nalishlari keng miqyosda o'zgarib bormoqda. Davrning radikal o'zgarishlari oliy ta'lim maktabidan ijtimoiy faol, mustaqil va ijodiy tafakkur qila oladigan, yangi axborotlarni orttiradigan va uni baholay oladigan, anglab etilgan tanlovni amalga oshiradigan, puxta o'ylangan va adekvat qarorlar qabul qiladigan talabarni tarbiyalashni talab qilmoqda[1],[2].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ijodkorlik psixologiyasida, ayniqsa ushbu yo'nalishda empirik ijodiy faollikni o'rganish katta o'rinni egallaydi. Ijodiy faollikning xususiyatlari, aniqlanishi va yuzaga kelish shartlari ilmiy mushohadalar va amaliy tadqiqotlarning mavzusi bo'lib kelmoqda.

Jumladan bu yo'nalishda olimlar tomonidan insonning ijodiy faolligini ta'minlovchi quyidagi asosiy omillar ajratilgan: kreativlik, ijodiy salohiyat, intellektual faollik (D.B. Bogoyavlenskaya), vaziyat-ustki faollik (V.A. Petrovskiy) [5], [4], [3].

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, shaxsning ijodiy faolligi to'g'risida mulohaza yuritganda, qo'yidagilarni ajratish mumkin: idrok, tasavvurlar, tafakkur, hissiy-kechinmalar, xotira, e'tibor, hayol, intuitsiya.

Faoliyatni tartibga soluvchi birlamchi psixik jarayon (shu bilan birga, ijodiy faoliyat va faollik) ko'plab olimlarning mulohazalariga ko'ra, idrok hisoblanadi, chunki u kognitiv jarayonning birinchi pog'onasini tashkil etadi. Idrok o'ziga xos bilish faoliyatidir. S.L.Rubinshteynning ta'rifi bo'yicha, bizning tashqi voqelikni bilish jarayonimiz sezgi va idrokdan boshlanadi, ushbu jarayonlar voqelikning alohida tomonlari tasodifiy qo'shilishini aks ettiradi [6], [8],[9],[10].

Hissiy obrazlarni qayta ishlash, psixik shakllar-tasavvurlarning vujudga kelishiga olib keladi. Idrok bizga predmet obrazini bevosita yaqinligida bersa, tasavvur esa, narsalarning obrazini, predmentning o'zi ishtirok etmaganda ishlab chiqaradi. Tasavvurlar umumiylashuvchanlik bilan farqlanadi.

A.V.Brushlinskiyning fikricha, sezgi a'zolari bizga uzatayotgan tasvirlar juda ahamiyatli, biroq predmetlarning har tomonlama to'laqlonli idrok etish uchun etarli emas [7]. Unda xar-hil predmetlarni murakkab o'zaro ta'sirlari, voqeliklar, hodisalar bir-biriga o'tishining sabablari va oqibatlari bir-birlaridan ajratilmagan. Voqelikni sezgi ta'siri natijasida namoyon bo'lishiga tafakkur yordamga kelib, voqelikni abstrakt-tafakkur orqali aks ettiradi. Tafakkurda sezgilar va idrokning ma'lumotlari qiyoslanadi, ya'ni bevosita sezgilarda noabstrakt xususiyatlar ochiladi; uning o'zaro ta'siri aniqlanadi, undagi voqelikni anglagan holda, tafakkur uning mohiyatini chuqurroq anglaydi [5].

E.S. Goncharenko ijodiy tafakkurning amaliy-faoliyatli tuzilmasi, o'zida quyidagi tarkibiy qismlarni umumlashtiradi: tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraktlashtirish, taqqoslash, aniqlashtirish va shaxs hayotiy faoliyati jarayonida antiqalik va takrorlanmaslik xususiyatlarining orttirilishi. Ijodiy tafakkur jarayonida emotsional tarkibiy qismning yuqori ahamiyatini aks etadi. Emotsiyalar (hissiy-kechinmalar) ijodiy faollikning ajralmas ulushini tashkil etadi. Ayniqsa, bu aloqa inson emotsiyalari va uning shaxsiy faoliyati o'rtasida juda tor va o'zaro bog'liqdir: faoliyat jarayoni his-tuyg'ularni keltiradi, insonning emotsional holati esa, uning faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi [11].

F.E. Vasilyuk tafakkur faoliyatiga emotsiyalar yuzaga kelishining ikkita asosini ajratib ko'rsatadi: birinchisi bu – nizoli voqea-xodisaning predmetli mazmuni rivojlanish jarayoni, ikkinchisi – gnostik farq, aniq tafakkur faoliyatini tashkillashtirish bosqichi va muammoli vaziyatning talablari orasida ro'y beradi. Birinchisi, intellektual hissiy-kechinmalar ning o'zagi hisoblanadi, ya'ni tafakkur jarayonida sub'ektning predmetga bo'lgan munosabatini baholash, ikkinchisi esa, "nizoli" destrukturlashgan emotsiyalarning asosidir [5], [12].

Intellektual emotsiyalar tafakkur faoliyatining nozik boshqaruvini regulyasiyasini (tartibga solish) mexanizmi sifatida bo'lib, ularning o'ziga xos vazifasi, evristik funksiya bo'lib, murakkab va aniq bo'lmagan vaziyatlarda "hududli yo'nalganlik"ni amalga oshirib, echim yo'llarini qidirishni qisqartirish imkonini beradi. SHu bilan bir qatorda, ular muammoni maqsadlarga nisbatan ajratib, ya'ni vaziyatni shakl va fonda bir maromga solishni amalga oshiradi [5],[12],[13],[14].

Kognitiv jarayonlar uchun emotsiyalarning ijobiy jihati, bir qator psixologik tadqiqotlarda o'rganilib, ularda ta'kidlanishicha, ijobiy emotsiyalar ijodiy jarayonlarga ko'maklashadi [5]. A.Ayzenk (Isen A.M., Gowan J.C., Getzels J.W, Robinson G.F., 1985) va Gruber.H, Hargreaves.D.J Mednik.S.A, Mayer.J.D, Sternberg R.J. va uning hamkasblari tomonidan eksperimental olingan faktlar emotsiyalarni kognitiv jarayonlarda ahamiyatligi, xususan shaxsning ijodiy faolligiga ta'sir ko'rsatishini isbotlamoqda [18],[19],[15],[16],[17].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda metodolik asos sifatida Individual o'ziga xoslikning sub'ekti bo'lgan shaxs taraqqiyotida ijodiy faollikning roli chet el gumanistik psixologlari tomonidan keng o'rganilgan (G.Ollport, K. Rodjers, A. Maslou, V. Frankl va boshq.) nazariyalari olindi.

**Tahlil va natijalar.** Oliy ta'lim muassalarida bilim egallayotgan talabalarning ijodkorlik

motivatsiyasini rivojlantirish maqsadida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik treninglar Urganch, Buxoro va Qoraqalpoq davlat universitetlaridan jami 370 nafar talabalar ishtirokida o'tkazildi. Biz ularni 2 guruhga, tajriba va nazorat guruhlariga bo'lib o'rgandik. Tajriba guruhida 195 nafar, nazorat guruhida esa 175 nafar talaba tanlab olindi. Ijtimoiy-psixologik trening dasturi muayyan darajadagi psixologik tamoyillarga asoslangan psixokorreksion mashg'ulotlar, individual va guruhii suhbatlar asosida olib borildi va qo'yidagicha empirik natijalar qayd qilindi.

### 5-Faktorli ijodiy faollik metodikasi

“5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash” metodikasi (M.I. Rojkova, YU.S. Tyunnikova;) (B.S.Alishева, L.A.Volovichlar tomonidan modifikatsiya qilingan varianti)

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida talabalarda ijodiylik motivatsiyasi namoyon bo'lishining o'ziga xos psixologik jihatlarini o'rganishda, «5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash. (M.I. Rojkova, YU.S. Tyunnikova;) (B.S.Alishева, L.A.Volovichlar tomonidan modifikatsiya qilingan varianti)» metodikasidan foydalandik (3-iloa).

Ushbu metodika talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishdagi o'zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, 5 ta shkaladan iboratdir. 5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash” metodikasi 56 ta savolnomadan iborat bo'lib, har bir savolda 3 tadan javob tanlash imkoniyati beriladi.

1. “Yangilik hissi”- yangi narsani kashf etishga qaratilgan izlanish, axborotni qayta ishlash va o'zgartirish jarayoni.

2. “Tanqidiylik” mezon – fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi. Tanqidiylik mezon “baholash” va “o'z-o'zini baholash”, “tanqidiylik” va “o'z-o'zini tanqid qilish”, “isbotlash” va “rad etish”, “tanqidiy tahlil” kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

3. “Ob'ektning tuzilishini o'zgartirish qobiliyati” mezon - ob'ektning asosiy xususiyatini aniqlash va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish qobiliyati.

4. “Ijodkorlikka yo'nalganlik” mezon – bu muayyan tanqidiy vaziyatlarda qobiliyati va umidsiz bo'lib ko'rinadigan oddiy bo'shliqni yordamida xatto vaziyatni to'g'irlash va kerakli natijaga erishishga imkon beradigan, muammolarni xal qilishda jasorat, ya'ni muvaffakiyatsiz bo'lish xavfini cheklaydigan yoki boshqalarning salbiy baxosini oladigan, muxrlanmagan yondoshuv bilan muammoni xal qilish xususiyatidir.

5. O'z-o'zini baholash (nazorat so'rovnomasi) mezon - yuqori estetik, axloqiy, intellektual baholarni ta'minlaydigan ideal standartlarni yaratish qobiliyati, intuitivlik, aqliy faoliyatning barqarorligi, aqliy faoliyatni anglash, baholash va o'zini mazkur xusuiyatlardan qoniqish darajasi.

**Metodikani o'tkazish tartibi.** O'lchovlar to'rtta mezonlar bo'yicha amalga oshiriladi: yangilik hissi; tanqidiylik; ob'ektning tarkibini o'zgartirish qobiliyati; ijodkorlikka yo'nalganlik. Shuningdek, savollarni baholashda va sub'ektlar tomonidan amalga oshiriladigan sifatlarni, o'zini - o'zi baholash, taqqoslashni nazarda tutadigan nazorat savolnomasi ham mavjud. Mazkur metodika 16-25 yoshli shaxslar uchun mo'ljallangan.

### 1-jadval

5-Faktorli ijodiy faollik metodikasi omillari o'rtasidagi interkorrelyasion bog'liqlik ko'rsatkichlari (Pirson koeffitsenti bo'yicha)

| Ijodiy faollik mezonlari | Yangilik hissi” mezon | “ Tanqidiylik” mezon | “ Ob’ ektning tuzilishini o’zgar-tirish qobiliyati” mezon | “ Ijodkorlikka yo’nalganlik” mezon | “ O’z-o’zini baholash (nazorat so’rovnomasi)” mezon |
|--------------------------|-----------------------|----------------------|-----------------------------------------------------------|------------------------------------|-----------------------------------------------------|
| “Yangilik hissi” mezon   | 1                     | 0,267**              | 0,354*                                                    | 0,452**                            |                                                     |
| “Tanqidiylik” mezon      | 0,267**               | 1                    |                                                           |                                    | 0,412**                                             |

|                                                        |       |         |       |         |        |
|--------------------------------------------------------|-------|---------|-------|---------|--------|
| “Ob’ektning tuzilishini o’zgartirish qobiliyati” mezon | ,354* |         | 1     | 301**   |        |
| “Ijodkorlikka yo’nalganlik” mezon                      |       |         | 301** | 1       | ,512** |
| “O’z-o’zini baholash (nazorat so’rovnomasi)” mezon     |       | 0,412** |       | 0,512** | 1      |

Jadvalda ko‘rinib turganidek, M.I. Rojkova, Yu.S. Tyunnikovaning “5-faktorli ijodiy faollikni aniqlash” metodikasi B.S.Alisheva, L.A.Volovichlar tomonidan modifikatsiya qilingan varianti) ning 1-mezoni hisoblangan “Yangilik hissi” mezon qolgan 3 ta xususiyat ya’ni “Tanqidiylik” mezon (,267\*\*), “Ob’ektning tuzilishini o’zgartirish qobiliyati” mezon (,354\*) va “Ijodkorlikka yo’nalganlik” mezon (,452\*\*) bilan o’zaro interkorrelyasiyaga kirishganini kuzatishimiz mumkin (3.1-jadval).

Bundan ko‘rishimiz mumkinki, talabalarda “Yangilik hissi” mezon ya’ni yangi narsani kashf etishga qaratilgan izlanish, axborotni qayta ishlash va o’zgartirish jarayoni qanchalik yuqori bo’lsa, ularda tahlil qilish qobiliyati, ob’ektning asosiy xususiyatini aniqlash va undan foydalanishning yangi usuli hamda muammolarni xal qilishda jasorat, muvaffakiyatsiz bo’lish xavfini cheklaydigan yoki boshqalarning salbiy bahosini oladigan, muxrlanmagan yondashuv bilan muammoni xal qilish xususiyati ham yuqori bo’lar ekan.

Tadqiqot metodikamizning navbatdagi 2-mezoni “Tanqidiylik” mezon “Yangilik hissi” mezon (267\*\*) va “O’z-o’zini baholash (nazorat so’rovnomasi)” mezon (,412\*\*) bilan bog‘liqligi aniqlandi.

Demak, talaba-yoshlarimizda ijodiy faollik motivatsiyasini shakllantirish bu pedagoglarning, oilaning, umuman jamiyatning oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Darhaqiqat, yoshlarimiz uchun o’z manfaat va qiziqishlarini yangilikka intilish bilan boyitish orqali ma’naviy yetuk insonlarni tarbiyalashimiz muhim[20].

**Xulosa.** Talabalarda turli narsa va hodisalarga nisbatan tanqidiy munosabat qay darajada yuqori rivojlangan bo’lsa, ulardagi yangilik hissi va aqliy faoliyatning davomiyligi, aqliy faoliyatni anglash, baholash hamda o’zini mazkur xususiyatlardan qoniqishga bo’lgan munosabat ham shunchalik rivojlanganligini ifodalaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тютюнник В.И. Начальный этап онтогенеза субъекта творческого труда: автореферат докторской диссертации. - М.: МГУ, 1994.
2. Фаруқшина Ф.Г Развитие творческого мышления будущего учителя при компьютерном обучении дис, канд. психол. наук. – Казан, 2002.
3. Петровская Л. А Теоретические и методические проблемы социал психологического тренингаМ: Изд-во Моск. Ун-та, 1982. – С. 116.
4. Богоявленская Д.Б. Психология творческих способностей: учеб. пособие. – М.: Академия, 2002. – С. 213.
5. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. - Ростов-на-Дону, 1983. -173 с.
6. Бирюкова А.Т. Мотивационные средства развития творческой активности личности. дис, канд. психол. наук. - Новосибирск, 2005.с. 33.
7. Брушлинский А.В. «Культурно-историческая» теория мышления Издательство «Наука москва»-1966. – С. 13
8. Ретанова Е.А. Исследование перцептивных действий в связи с проблемой инсайта/ Е.А.Ретанова, В.П.Зинченко, Н.Ю.Вергилес //Вопросы психологии. - 1968.- №4. - С. 44-48.
9. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: «Питер», 2000, – 172с.
10. Телегина Э.Д., Гагай В.В. Когнитивно-личностные конструкторы развития

творческого мышления младших школьников //Мир психологии. -2003.- №2 (34). - С. 233-245.

11. Гончаренко Е.С. Развитие эмпатийного потенциала личности (на материале исследования детей 7-8 лет): дис, канд. психол. наук. - Краснодар, 2003.-176 с.

12. Василюк Ф.Е. Уровни построения переживания и методы психологической помощи // Вопросы психологии. 1988. № 5. С. 27-37.

13. Torrance, E. Creative teaching makes a difference. In W. Barbe&J/Renzulli (Eds.), Psychology and education of the gifted / New York, 1975.P.76.

14. Yong L.M. Relations between creativity and intelligence among Ma-laysian pupils// Percept. Motor Skills. 1994. V. 79 (20). P. 739-742.

15. Mednick S.A. The associative basis of the creative process // Psychological Review. 1962. Vol. 9. P. 220-232.

16. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer-Salovey-Caruso Emotional Intelligence/ Test (MSCEIT) user's manual. – Toronto: MHS Publishers, 2002, – 93 p.

17. Sternberg RJ. A three-facet model of creativity// R. Sternberg, T.Tardif (eds.). The nature of creativity- Cambridge: Cambr. Press, 1988. P. 125-147.

18. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 1995, – № 1. – С. 111-129.

19. Айзенк Г.Ю. Интеллект: новый взгляд// Вопросы психологии. – М.: 1995. – № 1. – С. 111-131.

#### **Bibliografik ma'lumotlar.**

20. Latipova U. TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO 'LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – С. 193-195.